SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O‘QUV MATERIALLARINI ADAPTATSIYA QILISH

Bo‘ribayeva Sharofat Abduraxmanovna
Xalqaro Nordik Universiteti
Katta o‘qituvchisi

Annotatsiya
Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quv materiallarini talabalarning ehtiyojlariga ko‘ra adaptatsiya qilishning zamonaviy metodik va didaktik asoslari tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim muhitida materiallarni adaptatsiya qilishda sun’iy intelekt texnologiyalarining o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi didaktik imkoniyatlari xususida ham maqolada to‘xtalib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: *sun’iy intelekt, adaptatsiya qilish, didaktika, o‘quv materiallari, ta’lim jarayoni.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) asrida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. An’anaviy o‘quv mashg‘ulotlari ko‘pincha barcha talabalar uchun yagona yondashuvni taklif etadi, bu esa guruhdagi o‘zlashtirish darajasi past va qiziqishlari turlicha bo‘lgan talabalarning individual ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkonini bermaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida turgan eng dolzarb vazifalardan biri ta’lim oluvchilarning qiziqishi hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta’lim muhitini yaratishdir. O‘quv jarayonini samarali, talabalar qiziqishidan kelib chiqib tashkillashtirish o‘qituvchi oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Bunday vazifalarni bajarish uchun o‘qituvchidan yuqori darajada kasbiy kompetensiyani va doimo o‘z ustida ishlab, bilim hamda ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirishini talab qilinadi. “Interaktiv texnologiyalar, geymifikasiya, axborot-kommunikasiya vositalari va onlayn platformalardan samarali foydalanish orqali o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash mumkin. [2, B.36] Kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lish uchun har bir o‘qituvchi katta mahorat, bilim, ko‘nikma va zamon bilan hamnafas bo‘lishni muhim.

Zamonaviy o‘qituvchi sun’iy intellekt texnologiyalaridan o‘quv materiallarini qisqa vaqt mobayniida moslashtirish va ta’lim sifatini samarali tashkil etish da imkon qadar unumli foydalanishi kerak. „Raqamli transformatsia davrida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’limni ta’minlash eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.” [1, B. 222–223] Darhaqiqat, individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim talabani doimiy faollikka undaydi. Ta’lim jarayonidagi bunday yondashuv talabalarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasi ni oshiradi.

Didaktikaning eng asosiy qoidalaridan biri bu o‘quv jarayonini samarali va talabalar qiziqishini inobatga olgan holda dars mashg‘ulotlarini tashkillashtirishdir. Biroq an’aviy ta’lim sharoitida, o‘qituvchining har bir talabaga alohida yondashishi jismoniy hamda vaqt jihatidan imkonsiz bo‘lib qoladi. Mazkur muamoni hal etishda

o‘quv materiallarini adaptasiya qilish muhim o‘rin egallaydi. Har bir o‘qituvchi tizimli darsni tashkillashtirish uchun zamonaviy darslikdan foydalanadi. Datslik qanchalik metodik jihatdan yaxshi yozilgan bo‘lishiga qaramay albatta uni adaptatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Adaptatsiya jarayonida o‘qituvchi darslikdagi biron bir materialni tashlab ketishi, mashq yoki topshiriqni bajarishda turli ijtimoiy shakllarni hamda ragamli texnologialarni o‘quv jarayoniga tatbiq qilishi, darslikdagi ko‘rsatmalarni o‘zgartirisi yoki qo‘shimcha materiallardan oqilona foydalanishi mumkin. Bunday funksiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda sun’iy intellektni o‘rni beqiyosdir. Sun’iy intellekt yordamida o‘quv materiallarini moslashtirish nafaqat materialning murakkabligini avtomatik boshqaradi, balki ta’lim oluvchining qiziqish darajasidan kelib chiqib turli mashq va topshiriqlar yaratib bera oladi.

Sun’iy intellekt yordamida o‘quv materiallarini adaptasiya qilishda talabalar motivatsiyani so‘ndirmaslik uchun material o‘ta qiyin ham bo‘lmasligi va ularni zerikishiga yo’l qo‘ymasliq maqsadida o‘ta oson ham bo‘lmasligi lozim. Sun’iy intellektga to‘g’ri promt berish bilan aynan mana shu muammoni yechish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quv materiallarini muvaffaqiyatli adaptatsiya qilish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish uchun bir qator muhim metodik tavsiyalarga amal qilish lozim. Sun’iy intellekt hech qachon o‘qituvchining o‘rnini to‘liq bosa olmasligini, balki uning eng yaqin didaktik yordamchisi sifatida xizmat qilishini anglash zarur. O‘qituvchi ta’lim jarayonining moderatori va talabalarning ijtimoiy-emosional rivojlanishini ta’minlovchi asosiy shaxs bo‘lib qoladi. Shunga o‘xshash fikrlarni biz ilmiy manbaalarda ham ko‘ rishimiz mumkin: “Texnologiyaning hozirgi holatini hisobga olsak, sun'iy intellekt insonlarni almashtira olmaydi, chunki insonlarda abstraksiyalash qobiliyati ancha yuqori va u puxta tahlil qilish imkoniga ega” [3, B.8]

Bundan tashqari adaptiv o‘quv materiallari davlat ta’lim standartlariga mos kelishi kerak. Barchamizga ma’lumki, darslikdagi mashqlar etarli bo‘lmasa yoki zerikarli bo‘lsa uni o‘rniga qo‘shimcha materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday hollarda asosiy darslikdagi progresiyaga katta ahamiyat berish kerak hamda qo‘shimcha materialdagi leksika va grammatik strukturalar til o‘rganuvchilarga tanish yoki notanish so‘zlar kamroq bo‘lishi juda muhimdir.

Avallari qo‘shimcha materiallardan foydalanish uchun nashr qilingan boshqa manbaalarni topib, unlarni kompyuterda yozib, keyun talabalarga taqdim qilinar edi. Xozirgi kunda esa sun’iy intelekt yordamida bir necha soniyalarda ularni tayorlab olish mumkin. Faqatgina o‘qituvchidan undan oqilona foydalanish va bilim talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quv materiallarini adaptatsiya qilish zamonaviy ta’lim tizimimning eng muhim vazifalaridan biridir. Biroq adaptatsiya jarayonida ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish, darslikdagi mashqlarni ketma-ketligi va til materiallarini o‘quv jarajoniga to‘liq mos kelishi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Jumaboyeva G., Maxmudova D. Sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga ta’siri: ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ – 2025. -Vol.79.-222–223 https://journalss.org/index.php/obr/article/view/2745

2. Ғофурова С. Методик маҳорат соатларини ташкил қилишда инновацион ёндашув // Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. – 2025. – 5-тўплам, 54-сон. – 136-бет. – Электрон манбаа. View of МЕТОДИК МАҲОРАТ СОАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ

3. Claudia de Witt, Christina Gloerfeld, Silke Elisabeth Wrede (Hrsg.). Künstliche Intelligenz in der Bildung: Einleitung. Springer Fachmedien Wiesbaden GmbH, ein Teil von Springer Nature. 2023.- S.8.